

BANK-MOLIYA TIZIMINI ISLOH QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Ko'paysinova Xurshida Jahongir qizi

Bank va moliya Akademiyasi "Moliya" yo'nalishi magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Bank-moliya tizimini isloh qilish jarayonida ularning barqarorligini ta'minlash, qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy muassasalar faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiq yanada takomillashtirish, ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar hajmini kengaytirish hamda aholining ishonchini oshirishga alohida e'tibor qaratilyapti. Davlatimiz rahbarining tegishli qaror va farmonlari sohaga taalluqli ayrim kamchiliklarni bartaraf etishga imkon yaratib, mamlakatimizda tarmoq va hududiy loyihalarni amalga oshirish bo'yicha mutlaqo yangi tizimni shakllantirdi.

Kalit so'zlar: Raqamlashtirish, transformatsiya, investitsiy, moliyaviy, standart, samaradorlik, strategiya, modernizatsiya, kredit, texnologiyalar, innovatsiyalar, xavfsizlik, mijozlar.

Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish borasida bir qancha strategik vazifalar turibdi. Yangi Taraqqiyot strategiyasini ta'minlash uchun tarkibiy izchil islohotlarni amalga oshirish darkor. Prezidentimiz tomonidan bosh mezon sifatida ilgari surilgan "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari!" g'oyasini hayotga tatbiq etishda ilm-ma'rifat va innovatsiya asosiy tayanch ustunlarga aylanadi.

Bank-moliya tizimini isloh qilish jarayonida ularning barqarorligini ta'minlash, qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy muassasalar faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiq yanada takomillashtirish, ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlar hajmini kengaytirish hamda aholining ishonchini oshirishga alohida e'tibor qaratilyapti.

Barchamizga ma'lumki, 2020 yil –"Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", deb e'lon qilindi. Davlatimiz rahbarining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish to'g'risida"gi farmonida mamlakatimiz bank tizimida davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish, moliya bozorida teng raqobat sharoitlarini yaratish, kreditlashni faqat bozor shartlari asosida amalga oshirish, banklarning davlat resurslariga qaramligini pasaytirish, xizmat ko'rsatishni modernizatsiya qilish, sohada samarali infratuzilma yaratish va avtomatlashtirish, shuningdek, ular faoliyatiga xos bo'lmagan funksiyalarni bekor qilish orqali samaradorlikni oshirish vazifalari belgilab berildi.

Ushbu farmonga muvofiq, “Ipotekabank”, “O’zsanoatqurilishbank”, “Asakabank”, “Aloqabank”, “Qishloq-qurilishbank” va “Turonbank”ni xususiylashtirish bo’yicha qaror qabul qilindi. Bundan tashqari, 2020-yilda “O’zsanoatqurilishbank” va YETTB o’rtasida mahalliy ishlab chiqaruvchilar, eksportyorlar, kichik va o’rtabiznesni moliyalashtirish uchun 40 million dollar miqdorida kredit liniyasini jalb qilish yuzasidan kredit shartnomasi imzolandi. Bank anderrayting joriy etdi va bu kreditlash operatsiyalarini xodimlar ishtirokisiz amalga oshirishga o’tdi.

Mamlakatimizda 2016-yilgacha ichki valyuta bozori va naqd pul muomalasida mavjud muammolar yillar davomida inflyatsiyaning yuqori darajada shakllanishiga yo’l ochishi bilan birga tadbirkorlikni rivojlantirishga salbiy ta’sir ko’rsatib kelardi. Bu muammolarning bartaraf etilishi pul-kredit siyosatini takomillashtirish va inflyatsiya darajasini pasaytirish uchun zamin yaratyapti. 2017-yilga kelib, pul-kredit siyosatini rivojlantirishda inflyatsion targetlash rejimini joriy qilishga kirishildi. Mamlakatimizda narxlar barqarorligini ta’minlash maqsadida 2020-yildan inflyatsiyani targetlashning faol bosqichiga o’tilib, 2021-yilda inflyatsiya darajasini 10 foiz, 2023-yilda esa 5 foiz darajadagi doimiy inflyatsion targetgacha pasaytirish vazifasi qo’yildi. Buning natijasida inflyatsiya darajasini 2017-yil yakunidagi yillik 18,8 foizdan 2020-yil oxirida 11,1 foizgacha pasaytirishga erishildi.

Shuningdek, aholining bankomatlardan naqd pul yechib olish hajmi 2017-yilda 98 milliard so’mni tashkil etgan bo’lsa, 2021-yilga kelib, 90 trillion so’mga yetdi. Muomaladagi naqd pulning banklarga kelib tushish ko’rsatkichi 2017-yildagi 27 foizdan 2020-yilda 65 foizgacha ko’paydi. Aholining naqd pul yechish imkoniyatini kengaytirish maqsadida bankomat va infokiosklar soni 4,9 mingtadan qariyb 12,7 mingtaga yetkazildi. Hududlardagi chakana savdo va pulli xizmatlar ko’rsatish shoxobchalari hamda bank infratuzilmalariga o’rnatilgan to’lov terminallari soni 2017-yildagiga nisbatan 2 barobar ko’payib, 2021-yil oktyabr holatiga umumiy soni 435 mingtadan oshib ketdi. Tijorat banklari tomonidan aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun bank kartalarining umumiy soni 2017-yildagiga nisbatan 1,3 barobar ortib, 2021-yilning 1-oktyabr holatiga qariyb 25,2 million donani tashkil etdi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning o’z ehtiyojlari uchun valyuta sotib olishi va sotishi uchun to’liq imkoniyatlar eshigi ochildi, tovarlar (ish, xizmatlar) eksportidan tushgan valyuta tushumini majburiy sotish tartibi mulkchilik shaklidan qat’i nazar, barcha eksportchi tashkilotlar uchun butunlay bekor qilindi. Buning natijasida yuridik shaxslar tomonidan ichki valyuta bozorida sotib olingan xorijiy valyuta hajmi 2020-yilda 2017-yildagiga nisbatan 2,1 barobar ortib, 20 milliard AQSH dollaridan oshdi. Jismoniy shaxslar tomonidan ayirboshlash shoxobchalari orqali xorijiy valyutani sotish hajmi 2020-yilda 2017-yildagiga nisbatan 5,3 barobar oshib, 4,6 milliard AQSH dollariga hamda xorijiy valyutani sotib olish hajmi 22 barobardan ziyod ko’payib, 4,1

milliard AQSH dollariga yetdi. Mamlakatimizning oltin- valyuta zaxiralari hajmi 2021-yil 1-sentyabr holatiga 35,4 milliard AQSH dollarini tashkil etib, 2017-yildagiga nisbatan 1,3 barobar ko'p bo'ldi.

Iqtisodiyotimizga ajratilgan kredit qo'yilmalari hajmi 2017-yildagiga nisbatan 6 barobar oshib, 2021-yil yakuni bo'yicha 332 trillion so'mga hamda uning YAIMdagi ulushi 20 foizdan qariyb 50 foizga yetishi kutilyapti. Aholini uyjoy bilan ta'minlashning bozor tamoyillariga asoslangan yangi tartibi joriy etildi va ipoteka kreditlari ajratish tartibi soddalashtirildi. Tijorat banklari tomonidan 2017-2020-yillarda jami 262,1 ming fuqaroga umumiy qiymati 32,1 trillion so'm ipoteka kreditlari ajratildi. Ko'chmas mulk bozorida ipoteka kreditlari asosida sotilgan uy-joylar sonining jami ko'chmas mulk oldi-sotdisidagi ulushi 2017-yildagi 22 foizdan 2020-yilda 34 foizgacha oshdi.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida tijorat banklari tomonidan aholining daromad topishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanishi hamda kichik tadbirkorlik subyektlarining loyihalarini moliyalashtirish uchun imtiyozli shartlarda kreditlar ajratishning aniq tizimi joriy etildi. So'nggi 4 yil davomida qariyb 934 mingdan ortiq oilaga 23 trillion so'm miqdorda shunday kredit ajratildi.

Kreditlarning real o'sishi yiliga o'rtacha 38,6 foizni tashkil etdi. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar miqdori 277 trillion so'mni tashkil etib, uning umumiy hajmi 2017-yildagiga nisbatan 150 foiz oshdi.

Xulasa qilib aytganda barcha chora-tadbirlarning tub zamirida, albatta yurtimizning tinch va farovon kelajagi yotadi. Mamlakatimizda bank-moliya tizimida olib borilayotgan islohotlar o'z natijasini beradi va Respublikamiz aholisi turmush darajasi yanada yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" 2020 yil 12 mayda.
2. Sh.Mirziyoyev. PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 24.02.2020.
3. Iriskulov.T.X. /Bank-moliya tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari/ Models and methods for increasing the efficiency of innovative research.vol. 2 no. 23 (2023):
4. Jusupova. A. T. /Respublikamizda bank-moliya tizimini isloh qilish./ INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023
5. Odilov Yo.J. [Methods of preparing students for professional activity on the basis of teaching physics](#) // O 'zbekiston Milliy Universiteti Xabarleri 1 (11)
6. Odilov Yo.J. [Informatsionno-kommunikatsionniye texnologii \(ikt\) v obrazovanii. Ikt kompetentnost v professionalnom razvitii kadrov.](#) Scienceweb academic papers collection, 2181-1784